



ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-aprel

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi 2 887,0 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni tashkil etdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,7 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, avtomobil savdosiga, benzin va gaz mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48,1 foizga ko'payishiga olib keldi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shaxri (23,6 foiz), Koson (9,9 foiz), Chiroqchi (8,6 foiz), Qamashi (7,1 foiz) va Kitob (6,6 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 915,3 ming.so'm bo'lib o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,1 foizni tashkil etdi.

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahari (2540,2 ming. so`m), Shaxrisabz shahri (1270,4 ming. so`m) Mirishkor (1180,8 ming. so`m), Muborak (1067,0 ming. so`m) va Dehqonobod (1053,0 ming.so`m) tumanlarida kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining tovar aylanmasi hajmi 51,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Ming.so'mda

	Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo tovar aylanmasi	O'tgan yilning mos davri nisbatan % da
Qashqadaryo viloyati	915,3	124,1
<i>G'uzor tumani</i>	576,6	117,6
<i>Dehqonobod tumani</i>	1053,0	124,0
<i>Qamashi tumani</i>	791,0	118,2
<i>Qarshi tumani</i>	481,0	116,7
<i>Koson tumani</i>	1050,9	122,7
<i>Kitob tumani</i>	748,6	121,2
<i>Mirishkor tumani</i>	1180,8	129,3
<i>Muborak tumani</i>	1067,0	124,2
<i>Nishon tumani</i>	797,6	126,8
<i>Kasbi tumani</i>	677,8	129,0
<i>Chiroqchi tumani</i>	639,1	121,5
<i>Shaxrisabz tumani</i>	478,5	47,1
<i>Yakkabog' tumani</i>	617,8	122,9
<i>Qarshi shaxri</i>	2540,2	130,8
<i>Shaxrisabz shaxri</i>	1270,4	239 m

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI


Kichik tadbirkorlik subektlarining chakana savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,4 foizni tashkil qildi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 87,3 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 1972,2 mlrd.so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 68,3 foizni tashkil etdi.



Jami chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi (tumanlar kesimida), foizda



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'lim boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: Ya. Xolto'raev

